



ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” VA “MAHBUB UL-QULUB” ASARLARIDA ILM AHLI HAQIDA

Muhayyo Muhammadiyeva

NavDPI 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7797260>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023

Accepted: 02nd April 2023

Online: 03rd April 2023

KEY WORDS

“Xamsa”, “Hayrat-ul-abror”,
“Mahbub ul-qulub”, ilm, ilm
ahli, olimlar, jaholat.

ABSTRACT

Alisher Navoiy o'zining “Xamsa” asaridagi barcha dostonlarida ilm bahsiga to'xtalib o'tgan. Asar qahramonlari ham ilm ma'rifatli, qalbi ilm osmonining quyoshidek pokiza zotlardir. Adibning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarida ilm, olimlar haqida so'z yuritilar ekan, faqat ilm o'rganib qolmay, unga amal ham qilish kerakligi, amal qilinmaydigan ilmdan hech qanday nafyo'qligi yetarlicha izohlangan.

***Ilm, Navoiy sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.***

Alisher Navoiyning barcha asarlarida iymon, islom, karam, saxovat, qanoat, sabr, odob, tavoze, hilm, adolat, ishq, vafo, mehr, muruvvat, andisha kabi insoniy fazilatlar keng yoritiladi. Shu bilan birga, tamagirlik, yolg'onchilik, riyokorlik, munofiqlik, takabburlik, jaholat, razolat, baxillik, maqtanchoqlik, kibrilik, zulm kabi sifatlar qoralanadi. Insoniylikning toji hisoblanmish komillik sifatlarini hech qaysi adib Navoiydek keng yoritgan emas. Navoiy asarlarida yuqorida keltirilgan fazilatlar qatorida ilmlilik va ilm ahli haqida ham ko'plab fikr yuritilgan.

Adib o'zining “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi barcha dostonlarida ilm bahsiga to'xtalib o'tgan. Asar qahramonlari ham ilm ma'rifatli, qalbi ilm osmonining quyoshidek pokiza zotlardir. Navoiy asarlarida faqat ilm o'rganib qolmay, unga amal ham qilish kerakligi, amal qilinmaydigan ilmdan hech qanday naf yo'qligi yetarlicha izohlangan.

Jumladan, “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o'qib unga amal qilmagan kimsa, yerni haydab, urug' sepmaganga yoki urug' sepib, hosildan bahra olmagan o'xshatiladi:

“Ilm o'qub qilmag'on amal maqbul,
Dona sohib ko'tarmadi mahsul.” (80-tanbeh)
Shuningdek,
“Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g'aniykim, molig'a buxl erdi yor.
O'ldilar yuz hasrat-u armon bila,



Elga bo'ldi ishlaridin e'tibor." (35-tanbeh)¹

degan jumalarning keltirilishi fikrimizning dalilidir.

"Hayrat ul-abror" dostonida ham ilm va olimlar, jaholat va nodonlar haqida ko'p o'rinlarda bayon etilgan. Xususan, o'n birinchi maqolat ilm va ilm ahli haqida bo'lib, unda dunyoda olimlar xor-u johillar aziz, razolat rivojda, bilim ahli ranj-u uqubatda ekani yoritilgan:

"Dahr ishi to xalq ila bo'lmish sitez,

Xor durur olimu, johil – aziz.

Toki jahon zulmini qilmish pisand,

Yerga tushar meva, yig'och sarbaland."²

Shuningdek, Navoiy "kim ilmni amalga erishish uchun vosita qilsa, o'zini ham, xalqini ham yo'ldan adashtiradi, ilmi uning bilimsizligiga dalildir. Ilmi bo'la turib mansabga uchsa, toza terni dengiz suvi bilan teng ko'rgan bo'ladi", deydi.

"Ilmi kim vositayi joh etar,

O'zini-yu xalqini gumroh etar.

Olim agar jon uchun o'lsa zalil,

Ilmi aning jahlig'a bo'lg'ay dalil"²

"Mahbub ul-qulub"da ham "Ilm o'rganmoq e'tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik orttirish uchun emas", degan fikrlar keltiriladi.

Olim agar o'z yo'liga qat'iy amal qilsa, ilmiga qarab ish tutsa, dunyoning harom mollariga ko'z olaytirmasa, o'tkinchi dunyoga tikilib qaramasa,

"Oni sharaf gavharining koni bil,

Gavhar-u kon, harne desang oni bil".²

"Hayrat ul-abror"ning o'n birinchi maqolatiga ilova qilingan hikoyatda Imom Faxr Roziy bilan Muhammad Xorazmshohning suhbatini keltirilgan. Hikoyatda keltirilishicha, dunyo dindorlari imomi Xorazmni o'ziga oromgoh qilganida uning diydoriga Xorazmshoh takabburlik qilib kelmaydi, imom ham ilmni qadrini bilib uning yoniga bormaydi. Bir kuni imom va shoh hammomda uchrashib qoladi. Shunda Xorazmshoh ochilib undan qiyomat kuni qanday hol yuz berishini, har bir kimsaning ahvoli qanday bo'lishini so'raydi. Imom esa bu ma'noli savolga eng maqbul joy hammom ekanligini izohlaydi:

"Joh-u jalol ahli saningdek bori,

Ichkari-yu bor-u yo'qi tashqori.

Ilm-u amal ahli meningdek tamom,

Harne yig'ib, hamrah etib vassalom.

Yo'q sanga sultonlik ila sud ko'p,

Lek manga ilm ila behbud ko'p"³

"Mahbub ul-qulub" asarida bolalarga ilm berishda o'qituvchining o'rni kattaligi, mas'uliyati og'irligi izohlangan. Shuningdek, ilm berishda o'qituvchining juda ko'p mashaqqat chekishi, shu sabab bolada uning haqi ko'p ekani, agar shogird ulg'ayib martabaga erishsa, o'z muallimiga qulluq qilishi lozimligi uqtirilgan.

¹ Alisher Navoiy . Mahbub ul-qulub. – T.: Yangi asr avlodi, 2019-y.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'ofur G'ulom, 2020-y.

³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'ofur G'ulom, 2020-y.



Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.⁴

Shuningdek, "Mahbub ul-qulub" da keltirilgan quyidagi jumlar esa tilimizdagi eng sara hikmatli so'zlar qatoridan joy olgan;

"Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim;

Oz-oz o'rganib – dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur;

O'rganishdan qochgan – dangasa, o'rganishdan qochish uchun yuziga vaj-bahona eshigini ochgan – ishyoqmas; zahmat chekib ilm o'rgangan – donishmand". (97-tanbeh)⁴

Demak, Navoiy qarashlarida kishilarning ma'naviy dunyosini belgilovchi fazilat – ilmga tashnalik, komillikka intilish degan g'oya yotadi. Navoiy tasavvurida ilmli, ma'rifatli, madaniyatli inson, har qanday noaxloqiy sifatlardan xoli inson ma'naviy yetuk shaxsdir.

References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-y. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbaadan olingan)
3. Alisher Navoiy . Mahbub ul-qulub. – T.: Yangi asr avlodi, 2019-y. . (Izoh: boshqa misollar ham shu manbaadan olingan)

⁴ Alisher Navoiy . Mahbub ul-qulub. – T.: Yangi asr avlodi, 2019-y.